



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 193 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 7-aprelda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayeich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Цифровизация социально-трудовых отношений: вызовы и перспективы для работников	18
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan soliq to'lovchi yuridik shaxslarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish masalalari.....	26
To'xtaboyev Nuriddin Isomiddin o'g'li	
Ecotourism in Protected Areas: A Literature Review.....	32
Ismoilova Maftuna Mamat qizi	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari.....	38
Primova Shaxlo Jumayevna	
Statistik baholash va ekonometrik modellashtirish orqali biznes rivojlanish tendensiyalarini samaradorligini baholash.....	43
Xabibullayev Ibrohim, Saidova Marhabo Xabibullo qizi	
Tijorat banklarida xususiy kapital hisobi va auditini takomillashtirish	52
Qodirova Zilola Maxmud qizi	
Qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligining ilg'or xorij tajribasi.....	57
Erkayev Nodir Xudayberdiyevich	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etish holati va asosiy yo'nalishlari.....	71
Madraximova Zulfiya Nurmatovna, Ishankulova Komila Kurbanovna, Ortiqboeva Aziza Xolmurza qizi, Omonkulova Ro'zigul Akmaljon qizi	
Challenges and opportunities in implementing green economy indicators in uzbekistan's industrial sector under the fourth industrial revolution.....	76
Shodmonov Ruslan Golib ugli, Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich	
Rivojlangan mamlakatlarga ishchi kuchi oqimi va O'zbekiston mehnat bozoridagi o'zgarishlar.....	89
Tilabova Kumush Farhod qizi	
Mamlakatda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	95
Yuldashboyev Azizulloh Bunyodbek o'g'li, Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich	
"Ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni samarali rejalashtirish va boshqarish"	101
Bauyetdinov M.J., Medetbayeva D.T.	
Enhancing utilization and minimization of renewable energy systems in uzbekistan	105
To'irova Hamida Umedovna	
Tijorat banklari daromadini oshirishda aholining savodxonligi va xulq atvorining roli	114
Shakhlo Davirova	
2020–2024-yillarda o'zbekistondagi iqtisodiy o'sish dinamikasi	120
Akbarov Nodir, Ibodullayev Navro'zbek	
O'zbekistonda xalqaro moliyaviy institutlarning yashil moliyalashtirish jarayonidagi roli va strategik yo'nalishlari	125
Gulmira Axmadjonova Xabibulla qizi	
Sug'urta tizimiga raqamli texnologiyalarning ta'siri	133
Uzaqova Kamola Bexzodovna, Yahyoyev Bahridinxon Bahroil o'g'li	
Improving payment services practices in commercial banks: strategies for efficiency and security.....	138
Mamayusuf Abdusamatov	
Jahon moliya tizimi: asosiy tendensiyalar va rivojlanishning innovasion yo'nalishlari	143
Ataniyazov Jasurbek Xamidovich	
Повышение конкурентоспособности экологического туризма Узбекистана путём развития всесезонных горных туристических центров.....	150
Ахмедходжаев Равшан Темурович	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar tashqi iqtisodiy faoliyatida valyuta operatsiyalarini takomillashtirish	157
Safarov Alisher Ibrohim o'g'li	



Oliy ta'lim tizimini miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari asosida baholashning kompleks metodologiyasi.....	163
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi, Bozorova Muazzam Hamid qizi	
Ko'chmas mulkni boshqarish samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlari	167
Mirdjalilova Dildora Shuxratovna	
Xizmatlar sohasini rivojlantirishda kichik biznesning ahamiyati va uning innovatsion rivojlantirishdagi muhim xususiyatlari	173
Ulmasova Oygul Baxtiyorovna	
Результаты долгосрочного прогнозирования и стратегического анализа эффективной организации современного управления жилищным фондом.....	178
Бердиева Дилфуза Ахатовна	
Improving long-term assets accounting and auditing	184
Gulboy Yusupov	
Davlat budjeti va xususiy sektor ishtirokida oliy ta'limni moliyalashtirishning optimal modeli.....	189
Bozorov Alisher Ro'zimurodovich	



DAVLAT BUDJETI VA XUSUSIY SEKTOR ISHTIROKIDA OLIY TA'LIMNI MOLIALASHTIRISHNING OPTIMAL MODELI

Bozorov Alisher Ro'zimurodovich

International digital university nodavlat

oliy ta'lim muassasasi dekani, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishda davlat budjeti va xususiy sektor o'rtasidagi optimal nisbat aniqlanadi. Xalqaro tajribalar asosida mamlakat sharoitiga mos aralash moliyalashtirish modeli ishlab chiqilgan va uning ustun hamda xatarli jihatlari baholangan. Tavsiyalar orqali ta'lim sifatini oshirish va moliyaviy barqarorlikka erishish mexanizmlari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, moliyalashtirish, davlat budjeti, xususiy sektor, sheriklik, investitsiya.

Abstract: This article examines the optimal balance between state budget funding and private sector involvement in financing higher education in Uzbekistan. Based on international experience, a contextually adapted mixed financing model is developed. Its advantages and potential risks are assessed. Practical recommendations are provided to enhance education quality and ensure the financial sustainability of higher education institutions.

Key words: higher education, financing, state budget, private sector, partnership, investment.

Аннотация: В данной статье рассматривается оптимальное соотношение между государственным бюджетом и участием частного сектора в финансировании высшего образования Узбекистана. На основе международного опыта разработана адаптированная модель смешанного финансирования, проанализированы её преимущества и потенциальные риски. Даны практические рекомендации по повышению качества образования и финансовой устойчивости вузов.

Ключевые слова: высшее образование, финансирование, государственный бюджет, частный сектор, партнёрство, инвестиции.

KIRISH

So'nggi yillarda dunyo miqyosida oliy ta'lim tizimi jadal transformatsiyalanib bormoqda. Global raqobat, raqamli texnologiyalarning kirib kelishi, mehnat bozoridagi talablarning o'zgarishi hamda bilim iqtisodiyotining shakllanishi oliy ta'limning mazmuni, sifati va moliyaviy arxitekturasini tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo qilmoqda. Xususan, oliy ta'limni barqaror moliyalashtirish masalasi ko'plab mamlakatlar uchun strategik muammo darajasiga chiqmoqda.

An'anaviy tarzda oliy ta'lim davlat tomonidan moliyalashtirilgan soha sifatida qaralgan bo'lsa-da, bugungi kunda davlat budjeti imkoniyatlarining cheklanganligi, ta'lim olish istagining ortib borayotgani hamda ta'lim xizmatlarining ko'lamini kengaytgan sababli moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish zarurati yuzaga kelmoqda. Bu esa, davlat va xususiy sektor o'rtasida yangi hamkorlik shakllarini shakllantirish, sarmoya jalb qilish va samarali moliyaviy modellarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Xalqaro amaliyotda davlat budjeti, talabalar to'lovlari, xususiy investitsiyalar, xalqaro grantlar va donorlik mablag'lari asosida shakllangan aralash moliyalashtirish modellari tobora keng qo'llanilmoqda. Bunday yondashuvlar moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, universitetlarning mustaqilligini kuchaytirish va innovatsion rivojlanishga zamin yaratadi. Xususan, AQSh, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda davlat-xususiy sheriklik asosidagi moliyalashtirish mexanizmlari ta'lim sifati va tadqiqotlar samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lmoqda.

O'zbekiston sharoitida esa oliy ta'lim tizimida moliyalashtirish manbalari hali hamon asosan davlat budjetiga tayanadi. Biroq 2021–2023-yillarda olib borilgan islohotlar natijasida universitetlarning moliyaviy mustaqilligini oshirish, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish va grant asosidagi ilmiy loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlari joriy etilmoqda.

Jumladan, Oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, davlat oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash masalalarini mustaqil hal etish, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga mablag'larni jalb etish imkoniyatini kengaytirish hamda oliy ta'lim



muassasalari o'rtasida raqobat muhitini rivojlantirish maqsadida 2022-yildan mamlakatdagi bir nechta OTMlarga moliyaviy mustaqillik taqdim etilgan edi.

Moliyaviy mustaqillikka ega bo'lgan OTMlarga quyidagi vakolatlar taqdim etilgan[1]:

ta'lim xizmatlari bozoridagi talabni inobatga olgan holda to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymatini belgilash; talabalarning to'lov-kontrakt mablag'larini to'lash muddatlarini belgilash va uzaytirish;

ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llay oladigan va ilmiy izlanish olib boradigan mahalliy hamda xorijiy professor-o'qituvchi va mutaxassislarni shartnoma asosida jalb qilish;

o'quv-ilmiy jarayonlarga jalb etilgan xorijiy yuqori malakali mutaxassislar mehnatiga haq to'lash miqdorlarini bozor konyunkturasidan kelib chiqib belgilashga oid qarorlar qabul qilish;

professor-o'qituvchilar shtat birliklarini kiritish me'yorlarini ishlab chiqish;

o'z mablag'lari hisobidan talabalar uchun stipendiya va grantlar ajratish;

xorijiy davlatlardan o'quv va ilmiy adabiyotlar, darsliklar hamda o'quv qo'llanmalarni mualliflik huquqi bo'lgan ishlab chiqaruvchilardan to'g'ridan to'g'ri xarid qilish;

bo'sh turgan bino va inshootlarda pullik xizmatlar ko'rsatish tartibini belgilash;

avtotransport vositalarining yo'l bosish yillik limiti va ularga xizmat ko'rsatish talablarini belgilash.

Oliy ta'lim tizimining barqarorligi va raqobatbardoshligi bevosita uning moliyaviy asoslariga bog'liq. An'anaviy tarzda davlat budjeti hisobidan moliyalashtiriladigan tizimini tokiomillashtirish, xususiy sektordan sarmoya jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, oliy ta'limni moliyalashtirishda davlat va xususiy sektor o'rtasida barqaror hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

Ushbu maqolada aynan oliy ta'limni moliyalashtirishda davlat budjeti va xususiy sektor ishtirokining optimal nisbatini aniqlash, xalqaro tajribalar asosida O'zbekiston sharoitiga mos model ishlab chiqish hamda bu modelning afzallik va xatarli jihatlarini aniqlash asosiy maqsad qilib olingan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim tizimini moliyalashtirish bo'yicha xalqaro ilmiy adabiyotlarda bir qator yondashuvlar va nazariy qarashlar shakllangan. Asosan, uch asosiy moliyalashtirish modeli mavjud: to'liq davlat tomonidan moliyalashtirish (public funding), aralash moliyalashtirish (mixed or diversified funding) va to'liq xususiy moliyalashtirish (private funding).

B.Clark[2] o'zining "Entrepreneurial Universities" nomli tadqiqotida oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda diversifikatsiyalashgan moliyaviy manbalar, ya'ni "uchburchak moliyalashtirish modeli" (triple funding model: davlat, talabalar to'lovi, xususiy sektor) muhimligini ta'kidlaydi. U universitetlarni mustaqil daromad topishga undash orqali ularning innovatsion salohiyatini oshirish mumkinligini asoslab bergan.

D.Johnstone[3] esa oliy ta'limda "xarajatlarni taqsimlash" (cost-sharing) konsepsiyasini chuqur tahlil qilib, davlat budjeti bilan birga talabalar va oilalarning ham moliyaviy ishtirokini ta'lim sifati va keng qamrovli qamrovni ta'minlashda muhim deb hisoblaydi. U, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar sharoitida davlat resurslari cheklangani sababli bu modelga ehtiyoj ortib borayotganini qayd etadi.

N.Barr[4] esa ta'limni iqtisodiy nazariya nuqtayi nazaridan baholab, moliyalashtirishning turli modellari ta'limga bo'lgan talab, adolat, samaradorlik va imkoniyatlar tengligi kabi ko'rsatkichlarga qanday ta'sir qilishini tahlil qiladi. Uning fikricha, oliy ta'lim tizimining ijtimoiy toifalarga nisbatan ochiqqligini saqlab qolish uchun davlat va xususiy sektor resurslarini muvozanatli ishlatish zarur.

OECD[5] ma'lumotlariga ko'ra, a'zo mamlakatlarda oliy ta'limga ajratilayotgan umumiy xarajatlarning o'rtacha 30–40 foizi xususiy manbalar hisobiga to'g'ri keladi. Bu holat, ayniqsa, AQSh, Janubiy Koreya va Avstraliya kabi mamlakatlarda yaqqol namoyon bo'ladi, u yerda talabalar to'lovlari va xususiy sarmoya asosiy moliyaviy manba hisoblanadi.

P.Altbach hamkasblari[6] bilan global tendensiyalarni ko'rib chiqib, universitetlarning moliyaviy muammolariga javoban xususiylashtirish, tijoratlashtirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali alternativ moliyalashtirish mexanizmlari shakllanganini qayd etadi. Ular ta'limning "yangi biznes modeli" sifatida ko'rilayotganiga e'tibor qaratadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O'zbekiston uchun esa davlat-xususiy sheriklik (PPP) mexanizmlarini qo'llash orqali universitetlar va sanoat o'rtasida uzviy aloqani yo'lga qo'yish dolzarb sanaladi. World Bank[7] hisobotida ta'lim sohasidagi investitsion loyihalarda xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirish usullari, xatarlarni boshqarish va hukumatning kafolatlari bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Shuningdek, S.Mahmudov[8] o'zining O'zbekiston sharoitida olib borgan tahliliy tadqiqotida oliy ta'limni moliyalashtirishda muqobil manbalarni jalb qilishda qonunchilik-huquqiy asoslarni mustahkamlash zarurligini ta'kidlaydi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi va oliy ta'limda islohotlar doirasidagi hujjatlarda ham oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi, universitet grantlari, ilmiy tadqiqotlar uchun xususiy investitsiyalar va xalqaro donorlar bilan hamkorlik masalalari ilgari surilgan[11].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda O'zbekiston OTMlarida kontrakt to'lovlari asosiy daromad manbaiga aylangan. Tahlil shuni ko'rsatadiki, ayrim yirik universitetlarda kontrakt to'lovlari umumiy byudjetning 60–70 foizini tashkil qilmoqda. Bu holat ta'lim xizmatlarining bozorlashuvini kuchaytirayotganini ko'rsatadi, lekin ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini cheklaydi.

Xalqaro indekslar (QS, THE) ko'rsatkichlariga tayanib olib borilgan kuzatuvlar, universitetlarda moliyaviy mustaqillik oshgan sari ularning innovatsion faolligi ham ortishini ko'rsatmoqda. Jumladan, grantlar va tashqi resurslar hisobiga moliyalashtirilgan universitetlarda ilmiy maqolalar soni va xalqaro reytinglardagi o'rni yaxshilangan.

Oliy ta'limni moliyalashtirishda davlat budjeti va xususiy sektor ishtirokining optimal nisbatini aniqlash maqsadida xalqaro tajribalar chuqur o'rganildi. Xususan, AQSh, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Germaniya kabi rivojlangan davlatlarda oliy ta'lim tizimi aralash moliyalashtirish modeli asosida faoliyat yuritmoqda. Mazkur mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, moliyalashtirish manbalari o'rtasidagi ulush quyidagicha taqsimlangan (1-jadval):

1-jadval. Xorijiy mamlakatlarda OTMlarni moliyalashtirish manbalari[5].

Mamlakat	Davlat budjeti ulushi (%)	Xususiy sektor (talabalar to'lovlari, investitsiya) ulushi (%)	Boshqa manbalar (%)
AQSh	38	55	7
Buyuk Britaniya	32	60	8
Janubiy Koreya	25	70	5
Germaniya	80	15	5

Bu tahlildan ko'rinadiki, ayrim mamlakatlar (AQSh, Koreya) oliy ta'limda xususiy sektor ishtirokiga katta e'tibor qaratgan bo'lsa, boshqalari (Germaniya) esa davlat budjeti hisobidan moliyalashtirishni ustuvor deb hisoblamoqda. Eng muvaffaqiyatli va barqaror model aynan diversifikatsiyalangan yondashuv hisoblanadi.

O'zbekiston sharoitida esa 2023-yil holatiga ko'ra, oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning 75% dan ortig'i davlat budjeti hisobiga to'g'ri keladi. Xususiy sektor ishtiroki esa 20% atrofida bo'lib, asosan talabalar kontrakt to'lovlari orqali shakllanmoqda. Ilmiy tadqiqotlar va innovatsion faoliyat uchun xususiy investitsiyalar va donor mablag'larini yetarli darajada jalb qilish alohida ahamiyatlidir.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida xalqaro grantlar ulushi (taxminan 2–3%). BMT, Erasmus+, KOICA, JICA kabi donorlar bilan faol grant siyosatini yo'lga qo'yish orqali OTMlar ilmiy salohiyatini oshirish imkoni mavjud (2-jadval).

2-jadval. Optimal moliyalashtirish modeli.

Moliyalashtirish manbasi	Taklif etilgan ulushi (%)	Izohlar
Davlat budjeti	50	Asosiy strategik yo'nalishlar, infratuzilma va imtiyozli grantlar uchun
Xususiy sektor (investitsiyalar va to'lovlar)	40	Innovatsiyalar, startaplar, ta'lim xizmatlari uchun
Xalqaro grantlar va donorlar	10	Ilmiy tadqiqotlar, xalqaro loyihalar uchun



Mazkur model asosida quyidagi **afzalliklar** ta'minlanadi:

Moliyaviy barqarorlik – bir nechta manbadan doimiy moliyalashtirish;

Ta'lim sifati oshadi – xususiy sektor talablari asosida yangilanadigan o'quv dasturlar;

Innovatsion faoliyat rag'batlantiriladi – investorlar bilan sheriklik orqali;

Universitetlarning mustaqilligi kuchayadi – o'z daromad manbalariga ega bo'lishi orqali.

Biroq quyidagi **xatarli jihatlarni** ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim:

Ijtimoiy tengsizlik kuchayishi mumkin – to'lovlar ortishi sababli ijtimoiy zaif qatlamlar uchun ta'limga kirish imkoniyati cheklanadi;

Xususiy manfaatlar ustuvor bo'lishi mumkin – ta'lim sifati emas, iqtisodiy foyda yetakchi omilga aylanishi ehtimoli mavjud;

Davlat nazoratining susayishi – xususiy sektor ta'siri ortgan sari ta'limda maqsadlar farqlanishi mumkin.

Shu sababli, taklif etilayotgan modelda davlatning strategik tartibga soluvchi roli saqlab qolingani, biroq xususiy sektor uchun rag'batlantiruvchi sharoitlar – soliq imtiyozlari, kafolatlar, sheriklik mexanizmlari – belgilanishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot doirasida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston oliy ta'lim tizimining moliyaviy modeli asosan davlat budjeti hisobiga tayanmoqda. Biroq zamonaviy rivojlanish bosqichida bu yondashuvning o'zi etarli emas. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, oliy ta'lim tizimini barqaror rivojlantirishda aralash moliyalashtirish modeli – davlat, xususiy sektor, talabalar to'lovlari va donorlik mablag'lari asosidagi mexanizm – eng samarali hisoblanadi.

Tadqiqot natijasida quyidagi takliflar shakllantirildi:

davlat-xususiy sheriklik (PPP) asosida oliy ta'lim infratuzilmasiga investitsiyalarni kengaytirish;

xususiy investorlar uchun soliq imtiyozlari va sarmoya kafolatlari tizimini ishlab chiqish;

OTMlarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali ularning o'z daromadlarini oshirish;

xalqaro grantlar va donorlar bilan hamkorlik mexanizmlarini mustahkamlash;

moliyalashtirishda ijtimoiy adolat prinsiplariga rioya etgan holda to'lov tizimlarini differensiallashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.12.2021-yildagi "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-61-son qarori. <https://www.lex.uz/uz/docs/-5793251>
2. Clark, B.R. (1998). Creating Entrepreneurial Universities: Organizational Pathways of Transformation. Elsevier.
3. Johnstone, D.B. (2004). The Economics and Politics of Cost Sharing in Higher Education. Comparative Education Review.
4. Barr, N. (2012). Funding Higher Education: Lessons from Economic Theory and International Experience. Routledge.
5. OECD (2020). Education at a Glance. OECD Publishing.
6. Altbach, P., Reisberg, L., & Rumbley, L. (2009). Trends in Global Higher Education: Tracking an Academic Revolution. UNESCO.
7. World Bank (2017). Mobilizing Resources for Education and Human Capital. World Bank Reports.
8. Mahmudov, S. (2022). "Oliy ta'lim tizimida moliyalashtirishning muqobil manbalari." Iqtisodiyot va ta'lim jurnali, №3.
9. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy hisobotlari (2023).
10. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari (2023).
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-son Farmoni, <https://lex.uz/docs/-5841063>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
